



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Karjavov G'olib

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti O'zbekiston –  
Finlandiya pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi birinchi  
bosqich magistranti

*O'RTA ASRLAR NOTIQLIK SAN'ATI VA UNING O'RGANILISHI  
HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR*

**Annotatsiya.** Sharqda, ma'lumki, madrasalar ta'limalda eng asosiy fanlardan biri notiqlik hisoblangan. Yozma va og'zaki nutqni rivojlantirish maxsus tarzda o'qitilgan. Ayniqsa, temuriylar davrida bu sohada ko'pgina kishilar faoliyat olib borishgan. Notiqlikning Hirot maktabi rivojida Alisher Navoiyning o'rni alohidadir. Mazkur maqolada shu haqida fikr-mulohazalar bildiriladi.

**Kalit so'zlar:** O'rta Osiyo, nutq, notiq, notiqlik, nutq odobi, yozma va og'zaki nutq.

O'rta Osiyo madaniyati tarixida ham nutq madaniyati o'ziga xos mavqyega egadir. Sharqda, jumladan, Movarounnahrda notiqlik, voizlik, ya'ni va'zxonlik «Qur'on»ni targ'ib qilish bilan mushtarak holda so'zning ahamiyati, ma'nosи va undan o'rinali foydalanish borasida ko'p yaxshi fikrlar aytilgan. Ana shu nuqtayi nazardan qaralsa, «Nutq odobi», «Muomala madaniyati» nomlari bilan yuritilib kelingan «nutq madaniyati» tushunchasi juda qadimdan olimlar, ziyolilarning diqqatini tortgan: Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobi, Ibn Sino, Abu Abdulloh Al-Xorazmiy, Mahmud Koshg'ariy, Mahmud Zamashariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, So'fi Olloyor kabi ulug'siyimolar nutq odobi masalalariga, umuman, nutqqa jiddiy e'tibor berish bilan birga tilga, lug'atga, grammatikaga va mantiqshunos-likka oid asarlar yozganlar. Buyuk qomusiy olim Beruniy (973-1048) o'zining «Geodeziya» asarida har bir fanning



paydo bulishi va taraqqiy etishi inson hayotidagi zaruriy ehtiyojlar talabi bilan yuzaga kelishini aytadi. Uningcha, grammatika, aruz va mantiq fanlari ham shu ehtiyojning hosilasidir.

Ulug‘ vatandoshimiz Abu Nasr Forobiy to‘g‘ri so‘zlash, to‘g‘ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va chiroyli nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyati kattaligi haqida shunday deydi: «Qanday qilib ta’lim berish va ta’lim olish, qanday so‘rash va qanday javob berish (masalasiga) kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi jismlarga va hodisalarga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman...».

Ulug‘ shoir Yusuf Xos Hojib turkiy xalqlarning XII asrdagi ajoyib badiiy yodgorligi bo‘lgan «Qutadg‘u bilig» («Baxt keltiruvchi bilim») asarida so‘zlarni to‘g‘ri tanlash va to‘g‘ri qo‘llash haqida: «Bilib so‘zlasa so‘z bilig sanalur» degan edi. Qisqa so‘zlash, so‘zlarga iloji boricha ko‘proq ma’no yuklash haqida:

Ugush so‘zlama so‘z biror so‘zla oz  
Tuman so‘z tugunini bu bir so‘zla yoz,

deydi. Mazmuni: so‘zni ko‘p so‘zlama, kamroq so‘zla. Tuman (ming) so‘z tugunini shu bir so‘z ila yech. Gapirishdan maqsad so‘zlovchi ko‘zda tutgan narsa, hodisa, voqyealarni tinglovchiga to‘g‘ri, ta’sirchan yetkazishdan iborat. Shunday ekan, nutqning to‘g‘riligi, ravonligi va mantiqiyligiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Mutafakkir so‘zlovchini tilning ahamiyatini tushungan holda, hovliqmasdan, so‘zning ma’nolarini yaxshi anglab, nutqni ravon qilib tuzishga chaqiradi.

Adib Ahmad Yugnakiy (XII-XIII) ham so‘zlaganda nutqni o‘ylab, shoshmasdan tuzishga, keraksiz, yaramas so‘zlarni ishlatmaslikka, mazmundor so‘zlashga chaqiradi. Noto‘g‘ri tuzilgan nutq tufayli keyin xijolat chekib yurmagin, deb so‘zlovchini ogohlantiradi:

O‘qub so‘zla so‘zni eva so‘zlama,  
So‘zung kizla kedin, boshing kizlama.

Mazmuni: (So‘zni uqib so‘zla, shoshib gapirma, keraksiz yaramas so‘zlarni yashir, yaramas gaping tufayli keyin boshingni yashirib yurma).

Nutq odobi deb yuritilgan qoida va ko‘rsatmalarda sodda va o‘rinli gapirish, qisqa va mazmundor so‘zlash, ezmalik, laqmalikni qoralash, keksalar, ustozlar oldida nutq odobini saqlash, to‘g‘ri, rost va dadil gapirish, yolg‘onchilik, tilyog‘lamalikni qoralash va boshqa shu kabi mavzularda so‘z boradi.

O‘rtta Osiyo notiqligining o‘ziga xos xususiyatlari shundan iborat ediki, u, eng avvalo, o‘sha davr tuzumining manfaatlariga xizmat qilar edi. Bu davrda notiqlik san’ati ustalarini nadimlar, qissago‘ylar, masalgo‘ylar, badihago‘ylar, qiroatxonalar, muammogo‘ylar, vozilar, go‘yandalar, maddohlar, qasidaxonlar deb yuritilishi ham ana shundan dalolat beradi. Ammo tilning yaratuvchisi xalq ekanligini va uning, eng



avvalo, xalqqa xizmat qilishini to‘g‘ri anglovchi sog‘lom fikrlari kishilar uning ijtimoiy mohiyatini doimo to‘g‘ri tushunib kelganlar. Navoiyning davlat arbobi sifatida mehnatkash xalq oldida qilgan chiqishlari, uning til haqida aytgan fikrlari buning dalilidir. Alisher Navoiyning «Muhokamat ul-lug‘atayn», «Mahbub ul-qulub», «Nazm ul-javohir» asarlari o‘zbek tilida nutq tuzishning go‘zal namunalari bo‘lishi bilan birga uning mukamallashishiga ham katta hissa qo‘shdi. U o‘zining «Mahbub ul-qulub» asarida shunday deydi: «Til muncha sharaf bila nutqning olatidir va ham nutqdirki, gar napisand zohir bo‘lsa, tilning ofatidur...» ya’ni, til shuncha sharafi bilan nutqning quroolidir, agar u o‘rinsiz ishlatilsa, tilning ofatidir.

Markaziy Osiyoda voizlik san’ati xazinasiga dastav-val Bahovuddin Valad (XII asr), Jaloliddin Rumiy(XIII asr), Husayn Koshifiy, Muin voiz (XV asr), Alisher Navoiy kabi so‘z ustalari g‘oyat boy hissa qo‘shganlar.

Shuningdek, tarixchi, shoir, hadisshunoslarning asarlarida ham voizlik san’atiga aloqador ba’zi fikrlar bayon etilgan. Jumladan, tarixnavis Ali Yazdiyning «Zafarnoma»sida, Navoiyning «Majolis un-nafois», «Mantiq ut-tayr», «Mahbub ul-qulub», «Xamsa», «Chor devon» asarlarida, Zaynuddin Vosifiyning «Badoye ul-vaqoye», Xondamirning «Makorim ul-axloq» risolasida atoqli voizlarning mahorati, iste’dodi, va’zxonlik uslublari haqida mulohazalar yuritilgan.

Shu bilan birga Navoiy so‘zi fasih, tili bilan dili boshqa va’zxonlar bilan o‘z nutqlari orqali odamlarga madad bergan, ularni to‘g‘ri yo‘lga boshlagan voizlarni ajratgan. "Mahbub ul-qulub" asarida haqiqiy voizning fazilatlarini quyidagicha ta’rif etadi: "Voiz Haq so‘zni targ‘ib qilishi, payg‘ambarlar so‘zidan chetga chiqmasligi kerak, eng avval uning o‘zi Haq va payg‘ambarlar yo‘liga kirishi, so‘ng esa nasihat bilan elni ham shu yo‘lga solishi lozim". Yana bir yerda u shunday deydi: "Va’zxon shunday bo‘lishi kerakki, uning majlisiga kirgan odam to‘lib chiqsin, to‘la kirgan odam esa yengil tortib, xoli qaytsin".

Alisher Navoiy mayin, yoqimli, shirali ovoz bilan so‘zlash haqida shunday deydi: «So‘zni ko‘nglingda pishqormaguncha tilga keltirma, harnakim ko‘nglungda bo‘lsa, tilga surma». Mazmuni («So‘zni ko‘nglingda pishitib olmaguncha, so‘zlama, ko‘nglingda bo‘lgan har qanday fikrni ham ayta berma»). O‘rta Osiyoda nutq madaniyati va notiqlik san’ati tarixini o‘rganishda Alisher Navoiyning ilmiy-badiiy merosi muhim o‘rin tutadi. Bu masalalar ona tiliga bo‘lgan buyuk muhabbat va ehtiromini o‘zining badiiy ijodi bilan amalda isbot qilgan va o‘zbek adabiy tiliga asos solgan mutafakkirning doimiy e’tiborida bo‘lganiga shubha yo‘q.

Alloma yashagan davrlarda hozir qo‘llanilib kelinayotgan nutq madaniyati, notiqlik san’ati, notiqlik, notiq, nutq tushunchalari nutq odobi, voizlik san’ati, voizlik, voiz, va’z tarzida iste’molda bo‘lgan va ular shoir asarlari matnida ham qo‘llanilgan. Shoirning «Badoyi’ ul-bidoya», «Navodir un-nihoya», «Xazoyin ul-maoniyy»,



«Xamsa», «Lison ut-tayr» asarlari matnini ko‘zdan kechirishdan va’z so‘zining asosan pand, nasihat ma’nolarida, voiz esa pand-nasihat qiluvchi ma’nosida qo‘llanganini ko‘rish mumkin:

Yig‘layin forig‘ debon va’z ichra aylarmen maqom,  
O‘z fig‘onidin sog‘inur voizi damsard ani

(«Badoyi’ ul bidoya»).

Navoiy o‘lsa kerak piri dayr bazmida xos,  
Ne desa desun ani va’z ichindagi oma

(«Navodir un-nihoya»).

So‘rmog‘img‘a kelsa Majnun netti, ey ahli junun,  
Va’zu pand aytib, meni bir dam xiradmand etsangiz

(«Favoyid ul-kibar»);

Bu yanglig‘ chu irshod etib va’zu pand,  
Iki olam ichra bori sudmand

(«Saddi Iskandariy») kabi.

Alisher Navoiy voizlik san’atiga munosabat bildirgan holatlar ham mavjud. Buni mumtoz fors-tojik adabiyoti klassiklari g‘azallariga tatabbu’ qilgan ba’zi misralarda uchratish mumkin. Ulardan shoirning voizlik san’atiga jiddiy bir ish sifatida qaraganligi ma’lum bo‘ladi.

Alisher Navoiy o‘z davrida bu san’at bilan mashg‘ul bo‘lgan kishilar haqida ma’lumotlar berganki, ular notiqlik san’ati tarixini o‘rganishda g‘oyatda qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi.

Manbalarda keltirilishicha, Mavlono Voiz Koshifiy Alisher Navoiyning zamondoshi, do‘sti va shogirdi bo‘lgan. Uning «Futuvvatnomai sultoniy», «Axloqi Muhsiniy», «Javohir ut-tafsir» asarlari axloq-odob masalalariga bag‘ishlangan. Yaxshi notiq bo‘lgan. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro asarlarini xalq oldida Voiz Koshifiy o‘qib bergen.

Voizlik san’ati O‘rta Osiyo xalqlarining, xususan, o‘zbek millatining ma’naviyati tarixida zarhal harflar bilan yozilishga arzigelik sahifalarni bizga meros qilib qoldirgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқ маданиуати. Дарслик. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 188 б.
2. Rasulov R., Husanov N., Mo‘yдинов Q. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. – Т.: Iqtisod-moliya, 2006.
3. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. Toshkent: Akademiya, 2007, 18-62-b.
4. Alisher Navoiy. Mahbub-ul qulub. 14-tom. Т., 1998, 94-b.
5. Bekmirzayev N. Nutq madaniyati va notiqlik asoslari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Fan. 2007, 131-148-b.